



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

## **DAUN SINDROMLI BOLALARINI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH**

Mirg'aniyeva Dildora Miraziz qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universitet Special pedagogy fakulteti talabasi

dildoramirazizovna@gmail.com

+998909184951

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Daun sindromi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, kelib chiqishi, bolaning daun sindromi bilan tug'ilishining asosiy omillari, belgilari, nutqidagi kamchiliklar, xarakterli jismoniy hususiyatlar, ularda duch keladigan sog'liq muommolari, o'qitish metodikasi, ular egallashi mumkun bo'lган kasblar

**Kalit so'zlar:** Daun sindromi, genetik o'zgarish, 21-xromosoma, intellektual rivojlanish, kilinik belgilar, erta tashxis, reabilitatsiya, sog'liq muommolari, ijtimoiy qo'llab quvvatlash, maxsus ta'lim, yuz tuzulishi, genetic kasallik, trizomiya, Inklyuziv ta'lim ,maxsus intrnatlati maktablar, psixologik qo'llab-quvvatlash, nutqni rivojlantirish.

### **Аннотация:**

В данной статье рассмотрена адаптация детей с синдромом Дауна к социальной жизни, происхождение, основные факторы, симптомы, дефекты речи, характерные физические особенности, проблемы со здоровьем, с которыми они сталкиваются, методы обучения, какими профессиями они могут овладеть.

**Ключевые слова:** синдром Дауна, генетическая изменчивость, хромосома 21, интеллектуальное развитие, клинические признаки, ранняя диагностика, реабилитация, проблемы со здоровьем, социальная поддержка, специальное образование, строение лица, генетическое заболевание, трисомия, инклюзивное образование, специальные школы-интернаты, психологическая поддержка, речевое развитие.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

---

## **Annotation:**

In this article, adaptation of Down syndrome children to social life, origin, main factors, symptoms, speech defects, characteristic physical features, health problems faced by children with Down syndrome, teaching methods, what they can acquire occupations

**Keywords:** Down syndrome, genetic variation, chromosome 21, intellectual development, clinical signs, early diagnosis, rehabilitation, health problems, social support, special education, facial deformity, genetic disorder, trisomy, Inclusive education lim, special boarding schools, psychological support, speech development.

Daun sindromi – bu genetik o‘zgarish tufayli yuzaga keladigan holat bo‘lib, insonning 21-xromosomasining qo‘srimcha nusxasiga ega bo‘lishi (trizomiya) bilan tavsiflanadi. Ushbu holat 700-800 ta tug‘ilishning bittasida uchraydi va har bir millat, jins yoki ijtimoiy guruhda kuzatilishi mumkin. Xalqaro Daun sindromiga chalingan odam kuni birinchi marta 2006-yil 21-mart kuni Jeneva universitetidan yunon genetigi Stilianos Antonarakisa tashabbusi bilan nishonlandi. Kun va oy juftlik raqami va xromosomalar soniga qarab tanlangan. Daun sindromli bolalar odatda mehribon, samimiyligini va ijtimoiy aloqalarni istaydigan bolalardir. Ular o’z atrofdagilariga nisbatan iliq va samimiyligini munosabatda bo‘lishadi. Biroq, ba’zan ularda hissiyotlarini ifodalash yoki boshqalarning hissiyotlarini tushunish bilan bog’liq qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ba’zi Daun sindromli bolalar musiqaga, san’atga yoki boshqa amaliy faoliyatlarga katta qiziqish va qobiliyat ko’rsatishi mumkin. Boshqa sohalarda bo’lgani kabi, bunday qobiliyatlar individual bo‘lib, har bir bola o’ziga xos xususiyatlarga ega. Daun sindromli bolalar har birining o’ziga xos rivojlanish bosqichlari va ehtiyojlari bo‘lishi mumkin. Ular uchun ijobjiy muhit, individual ta’lim dasturlari va doimiy qo’llab-quvvatlash rivojlanishlarini qo’llab-quvvatlashda muhim rol o’ynaydi.

**Daun sindromining kelib chiqishi;** Daun kasalligini birinchi bo‘lib ingliz vrachi Langdon Dawn 1886-yilda tavsiflab bergan. Bunga asosan xromosoma



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

to‘plamida ortiqcha xromosomalar bo‘lishi (21-juft) sabab bo‘ladi, shuning uchun ham ba’zan kasallik trisomiya deb ham ataladi. Bu holat meyoz paytida xromosomalarning ajralmasligidan kelib chiqadi, natijada 24 xromosomali gameta hosil bo‘ladi. Qarama-qarshi jins vakillining normal gametasi bilan birlashganda, zigota 47 ta xromosomali bo‘lib qoladi.

**Fizik;** Daun sindromi erkaklarda ham ayollarda ham kuzatiladi. Bu kasallika uchragan bemorning boshi nisbatan kichik, yuzi keng, ko‘zlarini bir-biriga yaqin joylashgan, og‘zi yarim ochiq, aqli zaif bo‘ladi. Daun sindromi bo‘lgan odamlarda quyidagi jismoniy xususiyatlari bo‘lishi mumkin: kichik iyak, epikantik burmalar, past mushak tonusi, tekis burun ko‘prigi, kaftning bitta burmasi va chiqib turgan til. Tilning chiqib ketishi past tonus va zaif yuz mushaklari tufayli yuzaga keladi va ko‘pincha miofunktional mashqlar bilan tuzatiladi. Ularda yurakning qorinchalararo tutami nuqsonlari, Girshprug kasalligi, tug‘ma gipotireoz uchrashi ham mumkun. Boshqa umumiyligi xususiyatlarga quyidagilar kiradi: bo‘g‘imlarning haddan tashqari egiluvchanligi, bosh barmog‘i va ikkinchi barmog‘i orasidagi qo‘sishimcha bo‘shliq, bitta palma chiziqlari va qisqa barmoqlar. Bo‘y o‘sishi sekinroq bo‘ladi, buning natijasida kattalar bo‘yi past bo‘ladi – erkaklar uchun o‘rtacha bo‘y 154 sm va ayollar uchun 142 sm ni tashkil qiladi. Daun sindromi bo‘lgan odamlarda hipotiroidizm, boshqa tibbiy muammolar va turmush tarzi tufayli yoshi kattaroq semizlik xavfi ortadi. Daun sindromi bo‘lgan bolalar uchun maxsus o‘sish jadvallari ishlab chiqilgan.

**Belgi va simptomlar;** Daun sindromi bo‘lganlar deyarli har doim jismoniy va aqliy zaiflikka ega. Kattalar sifatida ularning aqliy qobiliyatlarini odatda 8 yoki 9 yoshli bolalarnikiga o‘xshaydi. Shu bilan birga, ularning hissiy va ijtimoiy ongliligi juda yuqori. Ular zaif immunitetga ega bo‘lishi mumkin va odatda rivojlanish bosqichlariga kechroq yoshda erishadilar. Ularda tug‘ma yurak nuqsoni, epilepsiya, leykemiya va qalqonsimon bez kasalliklari kabi bir qator sog‘liq muammolari xavfi ortadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

**Nevrologik;** Ushbu sindrom aqliy zaiflik holatlarining uchdan bir qismini keltirib chiqaradi. Rivojlanishning ko‘plab bosqichlari 6–12 oy emas, balki 8–22 oy atrofida sodir bo‘lgan emaklash qobiliyati va mustaqil yurish qobiliyati odatda 9–18 oy emas, balki 1–4 yil ichida kechikadi. Yurish bolalarning 50 foizida 24 oydan keyin orttirilgan . Ushbu kechikishlarga qaramay, Daun sindromi bo‘lgan bolalar boshqa bolalar kabi jismoniy mashqlar bajarishni o‘rganishlari mumkin. Daun sindromi bo‘lgan bolalarda barcha rivojlanish bosqichlaridan o‘tishi uchun boshqa bolalarga qaraganda ko‘proq vaqt talab qilinishi mumkin, ammo ular oxir-oqibat bu bosqichlarning ko‘piga erishadilar.Daun sindromi bo‘lgan ko‘pchilik odamlar yengil (IQ: 50–69) yoki o‘rtacha (IQ: 35–50) aqliy zaiflikka ega, ba’zi hollarda og‘ir (IQ: 20–35) qiyinchiliklar mavjud . Yoshi borasida esa, Daun sindromi bo‘lgan odamlar va ularning tengdoshlari o‘rtasidagi tafovut kengayadi .Odatda, Daun sindromi bo‘lgan odamlar gapiresh qobiliyatidan ko‘ra yaxshiroq tilni tushunishadi. Babbling (chaqaloqlarda duduqlanib gapiresh) odatda o‘rtacha 15 oy atrofida paydo bo‘ladi. Daun sindromi bo‘lganlarning 10–45 foizida duduqlanish yoki tez va tartibsiz nutq bor, bu ularni tushunishni qiyinlashtiradi. 30 yoshdan keyin ba’zilar gapiresh qobiliyatini yo‘qotishi ham mumkin.

**Daun sindromili bola tug’ilishiga ta’sir qiladigan holatlar:** XX asrning o‘rtalarigacha Daun sindromi sabablari noma’lumligicha qolardi, ammo ushbu sindrom va ona yoshi o‘rtasidagi bog’liqlik va sindromga barcha irq vakillar teng ehtimollik bilan chalinishi mumkinligi fanga ma’lum edi. O’sha davrlarda sindrom genetik va nasliy omillarning kombinatsiyasi tufayli kelib chiqadi degan nazariya hukm surardi. Boshqa nazariyalar esa sindrom tug’ruq vaqtida jarohatlanish tufayli rivojlanadi degan tushunchani ilgari surgan. Daun sindromi kamdan-kam uchraydigan patologiya emas — u o‘rtacha 700 ta tug’ilishdan bitta holatda kuzatiladi. Hozirgi vaqtda prenatal tashxis tufayli, Daun sindromi bo‘lgan bolalar tug’ilishining chastotasi har 1100 holatdan 1 tagacha kamaygan, chunki homila kasalligi haqida xabar topgach, abortga murojaat qilinadi. Har ikki jinsdagি homilada ham anomaliya uchrashi ehtimoli bir xil bo‘ladi. Daun sindromi bilan tug’iladigan bolalar soni har 800 yoki 1000 chaqaloq uchun 1 tani tashkil etadi. 2006-yilda kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazi buni Qo’shma Shtatlarda 733 ta



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

tirik tug'ilish uchun bitta holat deb baholadi (yiliga 5 422 yangi holat). Ularning 95%ga yaqini 21-xromosoma trisomiyasidir. Daun sindromi barcha etnik guruhlarda va barcha iqtisodiy tabaqalarda uchrashi mumkin. Onaning yoshi o'tgani sayin oshishiga qaramay, ushbu sindromli bolalarning 80 foizi 35 yoshgacha bo'lgan ayollarda tug'iladi. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, otaning yoshi, ayniqsa, u 42 yoshdan oshgan bo'lsa ham bolada sindrom rivojlanishi xavfini oshiradi. Ota-onaning yaqin qarimdoshligi va irsiy moyillik Daun sindromli bola tug'ilishiga sabab bo'lishi ham mumkun.

**Daun sindromining turlari;** Daun sindromining turlari Trisomiya 21: Bu odamda 21-xromosomaning 3 nusxasi bo'lgan eng keng tarqalgan tur. Mozaik Daun sindromi: Bu kamdan-kam uchraydigan shakl bo'lib, unda odamda 21-xromosomaning qo'shimcha nusxasi bo'lgan ba'zi hujayralar mavjud. Translokatsion Daun sindromi: bu turdag'i 21-xromosomaning bir qismi homiladorlikdan oldin yoki homiladorlik paytida boshqa xromosomaga biriktiriladi.

**Diagnostika;** Ko'pgina mamlakatlarda yoshidan qat'i nazar, homilador ayollarda 21-xromosomaning trisomiyasini aniqlash uchun prenatal skrining o'tkaziladi. Skrining homiladorlikning 11-13 haftalari orasida amalga oshiriladi. Biroq, bu usul to'g'ri tashxis qo'yishga imkon bermaydi va skrining natijasida Daun sindromli bemorni tug'ish ehtimoli yuqori bo'lgan homilador ayollarning xavf guruhigina shakllantiriladi. Ushbu sindromni aniqlashning eng samarali usuli – noinvaziv prenatal test, ya'nii onaning qonidan ajratilgan xomilalik DNKn'i tahlil qilish. Ushbu test homiladorlikning 9 haftaligida amalga oshirilishi mumkin.

**Kasallikni davolash;** Bu kasallikni davolab bo'lmaydi, lekin Daun sindromi bilan tug'ilgan bolaning rivojlanishini yaxshilash, jamiyatda o'z o'mini egallashiga imkoniyat yaratish uchun unga maxsus jismoniy va ruhiy ko'mak ko'rsatilishi mumkin. Shuningdek quyidagilar tayinlanishi mumkin: nootrop dorilar; qon-tomir tizimi uchun dori vositalari. Agar Daun sindromi tashxisi o'z vaqtida qo'yilmasa, bu bolaning ijtimoiy moslashuvida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlar: immunitetning past darajasi, o'tkir leykemiya, yurak,



# E CONF SERIES



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

katta tomirlar nuqsonlari, bepushtlik, oshqozon-ichak trakti kasalliklari. Ko'pincha, Daun sindromi bo'lgan odamlarning umr ko'rish davomiyligi 50 yildan oshmaydi. Bugungi kunda Daun sindromi bo'lgan shaxslarning umr ko'rish davomiyligi uzaygan bo'lib, bu muddat 50 yildan oshadi. Ushbu sindromga ega bo'lgan ko'p odamlar turmush quradilar. Erkaklarda cheklangan miqdordagi spermatozoidlar bo'ladi, Daun sindromi bo'lgan erkaklarning ko'pchiligi bepushtdir. Ayollarda muntazam hayz sikli kuzatiladi. Daun sindromi bo'lgan ayollarning kamida 50% farzandli bo'lishlari mumkin. Ushbu sindromga chalingan onalardan tug'ilgan bolalarning 35-50% da Daun sindromi yoki boshqa nogironlik aniqlanadi. Daun sindromi bo'lgan bemorlarda saraton o'smasi kamroq uchrashi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq, bunday kishilar kardiologik kasalliklar (odatda tug'ma yurak nuqsonlari), Altsgeymer kasalligi va o'tkir mieloid leykozlarga chalinishi ehtimoli ko'proq. Mazkur sindromli odamlarning immuniteti zaif bo'ladi, shuning uchun bolalar (ayniqsa, erta yoshda) ko'pincha pnevmoniyaga chalinadi, ular bolalarda uchraydigan infektsiyalarni qiyin boshdan o'tkazadi, tez-tez oshqozon buzilishi qayd qilinad. Daun sindromi bilan tug'ilgan bola besh yoshga qadar jismonan, aqliy va lingvistik jihatdan qanchalik ko'p rivojlansa, kelajakda unga ham, ota-onasiga ham shunchalik oson bo'ladi.

### Daun sindromli bolani tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak?

1. bolalar psixologik jihatdan tengdoshlaridan orqada qoladilar;
2. Diqqatni bir joyda ushlab turish qobiliyati juda past;
3. Bunday Bola muntazam ravishda shifokor ko`rigidan o`tishi va kerakli muolajalarni olib turishi lozim;
4. Bola jismonan tengdoshlaridan orqada qoladi;
5. Daun sindromli bolasi bor ota-onalarni topish va ular bilan muloqot qilish har tomonlama yengillik keltiradi;
6. Daun sindromiga chalinganlar uchun ishlab chiqilgan maxsus reabilitatsiya dasturlarini topib, ishtirot etish tavsiya etiladi;
7. Boshqa bolalar bilan o'yin maydonchalariga, kafelarga, bog'larga borishni o'rganish yaxshi natija beradi;
8. Bola uyalmaslikni o'rganishi kerak;



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

9. Bolani jamiyatdan yashirmay, moddiy va ijtimoiy yordam so‘ragan ma’qul;
10. Tushkunlikka tushmaslik lozim. Bunday bolalar, boshqa bolalar kabi, ota-onalarini juda yaxshi ko‘radilar va ularning mehriiga muhtoj bo`ladilar.

Daun sindromli bolalarga ta’lim berish alohida e’tibor, sabr-toqat va moslashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Bunday bolalarning o’quv ehtiyojlari individual bo’lib, ularga ijtimoiy, kognitiv va jismoniy jihatlarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar zarur. Quyida ta’lim jarayonida foydalaniladigan asosiy yondashuvlar keltirilgan:

1. Erta rivojlanish dasturlari Erta yoshda bolaning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun maxsus dasturlar boshlanishi muhim. Bu logopediya, fizioterapiya va kognitiv rivojlanish dasturlarini o’z ichiga oladi.
2. Inklusiv ta’lim Inklusiv ta’lim bolani oddiy maktablarga qo’shish orqali o’z tengdoshlaridan ijtimoiy muloqot o’rganishga yordam beradi. Shu bilan birga, maxsus yordamchilar yoki o’qituvchilar qo’llab-quvvatlashi muhimdir.
3. Moslashtirilgan o’quv rejasi Ta’lim dasturi bolaning individual ehtiyojlariga moslashtiriladi. Materiallar sodda va tushunarli tarzda taqdim etiladi. Amaliy mashg’ulotlar va vizual o’quv materiallari ko’proq ishlatiladi.
4. Ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish Ijtimoiy va emotsional ko’nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg’ulotlar bolaga o’z-o’zini boshqarish, muloqot qilish va jamoada ishslash ko’nikmalarini beradi.
5. Maxsus mutaxassislar bilan ishslash Logoped: Nutq va til rivojlanishi ustida ishlaydi. Psixolog: Bolaning emotsional farovonligini ta’minlaydi. Defektolog: Maxsus ta’limni boshqaradi.
6. Oilaviy qo’llab-quvvatlash Oilalar ta’lim jarayonining bir qismi bo’lishi kerak. Ota-onalar va o’qituvchilar hamkorlikda ishslash orqali bolaga eng yaxshi natijalarini taqdim eta oladilar.
7. Motivatsiya va ijobiy yondashuv Daun sindromli bolalar ijobiy rag’batlantirish orqali yaxshi o’rganadilar. Ularning muvaffaqiyatlarini e’tirof etish va qo’llab-quvvatlash ta’lim jarayonini samarali qiladi.
8. Mustaqillikni rivojlantirish Bolaga kundalik hayot ko’nikmalarini o’rgatish, masalan, kiyinish, ovqatlanish va shaxsiy gigiyena kabi qobiliyatlarni rivojlantirish muhimdir.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

Daun sindromli bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish; 1. Erta aralashuv va ta'lim Maxsus ta'lif dasturlari: Daun sindromli bolalar uchun maxsus o'quv dasturlari ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Ular bolalarni o'z imkoniyatlariga mos ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Logoped va defektolog yordamida rivojlanish: Nutq, aloqa va motorik ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. 2. Jamiyatga moslashuv Oilaviy qo'llab-quvvatlash: Oila bu jarayonning asosi hisoblanadi. Ota-onalar va aka-ukalar mehr va qo'llab-quvvatlash ko'rsatsalar, bolaning o'ziga ishonchi oshadi. Tengdoshlar bilan integratsiya: Maktabgacha yoki maktab muassasalarida sog'lom bolalar bilan birga ta'lim olish ular uchun ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. 3. Psixologik yordam Psixolog yordamida moslashuv: Ijtimoiy hayotdagi stresslarni kamaytirish va bolada o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish uchun psixolog yordamida ishslash zarur. Oila uchun treninglar: Ota-onalarga bolani qanday qo'llab-quvvatlash haqida maslahatlar berish va o'rgatish. 4. Jismoniy rivojlanish Sport va jismoniy mashqlar: Ularning motorik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi va jamiyatda faolroq bo'lishlariga imkon yaratadi. Maxsus olimpiadalar kabi tadbirlarda ishtirop etish rag'batlantiriladi. 5. Madaniy va ijodiy faoliyat Bolalarni musiqa, rasm chizish, qo'l mehnati kabi ijodiy mashg'ulotlarga jalb qilish, ularda ijobiy his-tuyg'ular va o'zini namoyon qilish imkonini beradi. 6. Jamiyatning xabardorligini oshirish Ko'ngilli tashkilotlar: Daun sindromli bolalar uchun moslashtirilgan tadbirlarni tashkil qilish orqali ularning jamiyatga qo'shilishini yengillashtirish mumkin. Stereotiplarni bartaraf etish: Jamiyatda Daun sindromli insonlarga nisbatan noto'g'ri qarashlarni yo'qotish uchun axborot kampaniyalari o'tkazish zarur.

## Xulosa

Daun sindromli bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayoni juda muhim bo'lib, ularning jamiyatda to'laqonli hayot kechirishiga ko'maklashadi. . Daun sindromli bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayoni davomiy va hamkorlikni talab qiladi. Bu nafaqat bola va oila, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtiropida amalga oshiriladi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sharipova G. I. The effect of dental treatment-profilactics on the condition of oral cavity organs in children with traumatic stomatitis // Тиббиётда янги кун. Бухара. – 2022. – № 5 (43). – С. 103-106. (14.00.00; № 22)
2. Шабалов Н.П. Педиатрия.- Санкт-Петербург: СпецЛит, 2022.-С. 3757.
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yilv
4. Elektron resurs.